

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
14	60730500	Suv ta'minoti va kanalizasiya tizimlarini loyihalashtirish va ekspluatasiyasi	+	+	Suv ta'minoti va kanalizasiya tizimlari muhandisi

Yo'nalish tavsifi

Suv ta'minoti va kanalizasiya tizimlarini loyihalashtirish va ekspluatasiyasi” bakalavriat ta'lim yo'nalishi - fan, ishlab chiqarish va texnika sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo'lib, o'z ichiga sanoat, fuqaro va boshqa obyektlarni suv bilan ta'minlash hamda oqova suvlarini oqizish tizimlarini loyihalash, qurish va ekspluatasiya qilish hamda ulardan foydalanish, qayta tiklash, montaj qilish, suv ta'minoti va kanalizasiya tizimlari sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlashning samarali jarayonlarini ta'minlashga yo'naltirilgan usullari va uslublarining majmuasini qamrab oladi. Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat sohasining muhandislik kommunikasiyalarini loyihalash, qurish va foydalanishi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlari, kommunal xizmat ko'rsatadigan barcha viloyat, shahar va tuman korxonalari, tabiatni muhofaza qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi muassasalarida suv ta'minoti va oqova suvlarni oqizish tizimlari va jihozlaridagi ishchi jarayonlarni boshqarish, suv ta'minoti va oqova suvlarni oqizish tizimlari va jihozlarining muhandislik hisoblarini amalga oshirish, turar joy, jamoat va sanoat binolarida muhandislik kommunikasiya tizimlaridan foydalanish va montaj qilish, muhandislik kommunikasiya tizimlari va jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, suv ta'minoti va oqova suvlarni oqizish tizimlarini loyihalash kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.